

Uzbekistan Airways'ning navbatdagi ochiq muloqoti Navoiy viloyatida bo'lib o'tadi!

2025 25 Sentabr

29-sentabr kuni Navoiy shahrida aviakompaniya rahbariyati va vakillari ishtirokida sayyor qabul bo'lib o'tadi. Unda ishtirokchilar Uzbekistan Airways faoliyati bilan bog'liq savollarini to'g'ridan-to'g'ri berishlari mumkin.

Tadbir soat 14:00 da Navoiy shahridagi Me'morlar ko'chasi, 8-daha manzilida joylashgan Yoshlar markazining ikkinchi qavatidagi kichik majlislar zalida boshlanadi. Barcha xohlovchilarni sayyor qabulga taklif qilamiz!